

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA XUSUSIY SEKTORNING ISHTIROKINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401550>

Navruzbek Shavkatov

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar kafedrasida mudiri

Davlat-xususiy sherikligi hukumat tomonidan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishining sabablari fiskal qiyinchiliklar, xizmat ko‘rsatish sohasining nisbatan sustligi va infratuzilmaga nisbatan talabning yuqori bosimi va boshqalarni keltiradigan bo‘lsak, zamonaviy iqtisodiyotda bunday muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion mexanizm sifatida xususiy sektorni hamkorlikka chorlash mumkin bo‘ladi. “Bunday mexanizm shakli davlat xizmatlarini ko‘rsatish, infratuzilmaga bo‘lgan talablarni qondirish, ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun xususiy sektorni jalb qilishga qaratilgan davlat-xususiy sherikligi deb ataladi”¹.

Davlat-xususiy sherikligida ishtirok etish xususiy sektor uchun nafaqat yangi bozorlarga chiqish va uzoq muddatli biznes istiqbollari belgilash, balki moliyaviy risklarni va xavflarni boshqarishga ham imkon beradi². Biroq shunga qaramasdan, infratuzilma uchun investitsiyaga qaror qabul qilish, an’anaviy investitsiyalarga nisbatan bir muncha murakkab va muhim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda keltirilishicha, “davlat-xususiy sherikligida xususiy investor ishtiroki bir necha jihatlarga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun tajribali, bozorda o‘z o‘rniga ega, raqobatbardosh xususiy sektor subyekti davlat-xususiy sheriklik loyihasi yoki xususiy investor tashabbusidagi loyihalarning muvaffaqiyatining asosi bo‘lishi mumkin”³. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishda moliyaviy rejalashtirish va boshqarish imkoniyatlari, boshqaruvning tashkiliy shakli, boshqaruv strategiyasi, ustunliklari

¹ Lin, Y. (2013). “Global infrastructure initiative and global recovery.” *J. Policy Model.*, 35(3), 400–411.

² Nijkamp, P., and Rienstra, S. A. (1995). “Private sector involvement in financing and operating transport infrastructure.” *Ann. Reg. Sci.*, 29(2), 221–235.

³ Li, B., Akintoye, A., Edwards, P. J., and Hardcastle, C. (2005). “Critical success factors for PPP/PFI projects in the UK construction industry.” *Constr. Manage. Econ.*, 23(5), 459–471.

va majburiyatlari ham loyihaga xususiy sektorni jalb etishda ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, Davlat uchun ijtimoiy qiymatni yaratish davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etishning muhim maqsadi ekan, xususiy sherik uchun esa pulning vaqt bo'yicha qiymatini boshqarish, foydasi uchun qo'shimcha hissa qo'shadigan xususiyatlar, tadbirkorlik, tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirish va ijobiy tashqi samaradorlikka erishish kabi ba'zi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Davlat sektori tomonidan xususiy sherikni tanlash jarayoni ham loyihaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sherikni tanlash jarayonini imkon qadar sodda va aniq, ochiq va shaffofligini ta'minlash, tender jarayonlarini soddalashtirish va xususiy investor uchun imkon qadar engilliklarni ta'minlashga e'tibor qaratish lozimdir. Bu borada mamlakatimizda ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu jarayonlar hanuz o'z murakkabligini saqlab qolmoqda. Shuningdek, qonunchilikdagi kamchiliklar, byurokratik to'siqlar, tender jarayonlaridagi murakkabliklar hamda vazirliklar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida davlat-xususiy sheriklik doirasida investorlar bilan ishlash, loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlar muvofiqlashtirilmaganligi sababli bugungi kunda ko'plab davlat-xususiy sheriklik loyihalari asossiz kechiktirilishi yoki amalga oshirilmay qolib ketishi kuzatilmoqda. Davlat-xususiy sherikligida xususiy sektor tashabbuskorligini oshirish uchun institutsional asoslarni mustahkamlash bilan birgalikda, albatta, loyihaning samaradorligiga, barqaror daromadga va mavjud risklarni adolatli taqsimlashga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

COVID-19 pandemiyasi inqirozi global miqyosda infratuzilma loyihalarini, xususan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini barcha bosqichlarda va barcha sohalarda hajmini keskin tushushiga olib keldi. Bu hukumatlar, infratuzilma aktivlari va xizmatlarini etkazib beruvchilar, ularning moliyaviy vositachilar va oxirgi iste'molchilar uchun salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Pandemiya ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan inqirozlar vaqtida va byudjetdan ajratiladigan mablag'larning hajmi kamayganda bevosita xususiy sektor bilan sheriklikni amalga oshirish orqali vaziyatdan chiqish mumkin bo'ladi. Pandemiya paytida xususiy sektorning jonlanishi ayniqsa sog'liqni saqlash va raqamli texnologiyalarga

asoslangan biznes sohalari asosan rivojlanadi. Davlat bevosita sog'liqni saqlash tizimini katta qismini xususiy sektor bilan bo'lishishga majbur bo'lmoqda. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini axborot texnologiyalari sohasidagi xususiy sektor vakillari bilan kengaytirishni davr talab etadi. Davlat-xususiy sherikligi asosidagi loyihalarning muvaffaqiyatli bo'lishida loyihaning moliyaviy mexanizmlari (moliyalashtirish manbalari) katta ahamiyatga egadir. Loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlarni oqilona tanlash, loyihada kapitalning o'rtacha tortilgan bahosini (WACC) minimalashtirishga va samaradorligini maksimalashtirishga sabab bo'ladi.

Loyihaning kapital tarkibini o'rganish va uni optimallashtirish muhim hisblanadi. Loyiha uchun optimal kapital tarkibini tanlashda bir necha omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bunda soliq yuki, korxonaning moliya bozoridagi ishtiroki, aksiyalar bahosi, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarda kapital tarkibida xususiy kapital va qarz kapitalining ulushlari bevosita loyihaning kapital bahosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida qarz kapitali tarkibining ko'proq bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday kapitallar asosan tijorat banklari, mintaqaviy va jahon miqyosidagi taraqqiyot banklari, xalqaro moliya institutlarining, infratuzilmaga investitsiya qiluvchi fondlarning mablag'lari, suveren va korporativ infratuzilma obligatsiyalarni joylashtirish orqali jalb etiladigan mablag'lardan tarkib topgan bo'ladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'rta yoki uzoq muddatga tuzilgan shartnomalar asosida ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni hal etish uchun tuzilgan hamkorlik asosida amalga oshiriluvchi loyihalar hisoblanadi. Bunday loyihalar amalga oshirish mamlakatimizda infratuzilmani yaxshilash, kommunal soha, transport, energetika tarmoqlarini rivojlantirish, pirovardida mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy etish imkonini berishini rivojlangan dunyo mamlakatlari o'z tajribalarida isbotlashmoqda. Aynan, shu jihatlar davlat-xususiy sherikligi amaliyotini O'zbekistonda rivojlantirish ahamiyatini ifodalaydi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalaridan ko‘radigan bo‘lsak, umuman olganda, xususiy sektor va davlat sherikligida loyihalarni amalga oshirishda quyidagi moliyalashtirish manbalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- xususiy kapital hisobidan;
- davlat buyurtmalari yordamida;
- birgalikda moliyalashtirish asosida;
- davlat qarz majburiyatlari va hukumat tomonidan turli xil imtiyozlar berish hisobiga.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilish hajmiga COVID-19 pandemiyasi o‘zini ta‘sirini o‘tkazmoqda:

Birinchidan, investorlar iqtisodiy vaziyat barqarorlashishini kutib, yangi loyihalarga investitsiya kiritishga shoshilmayapti;

Ikkinchidan, loyihalarning valyuta, inflyatsiya va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga nisbatan risklilik darajasi oshib bormoqda;

Uchinchidan, shartnoma shartlarining to‘liq bajarilmasligi xavfini ortib borishi, davlat byudjeti mablag‘lariga ehtiyojni oshirib yuborish xavfining mavjudligi;

Shuningdek, davlatning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ustunligi natijasida sohaning sekinlashuvi va boshqalar.

Dunyo amaliyotida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini daromadli bo‘lishini ta‘minlashda, xususiy investorni moliyaviy risklardan holi bo‘lishiga, investorlarni xotirjamligini ta‘minlashda daromadni kafolatlash muhim hisoblanadi. Davlat sherigi tomonidan belgilangan ta‘rifda sotib olish tarzida, optionlarni sotish yoki sotib olish orqali, erkin foydalanish uchun to‘lov, byudjet subsidiyalari, iste‘molchining to‘lov kafolatlari bevosita davlat-xususiy sheriklik loyahasida investor uchun loyihadan kutilayotgan minimal daromad bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lin, Y. (2013). “Global infrastructure initiative and global recovery.” J. Policy Model., 35(3), 400–411.

2. Nijkamp, P., and Rienstra, S. A. (1995). "Private sector involvement in financing and operating transport infrastructure." *Ann. Reg. Sci.*, 29(2), 221–235.
3. Li, B., Akintoye, A., Edwards, P. J., and Hardcastle, C. (2005). "Critical success factors for PPP/PFI projects in the UK construction industry." *Constr. Manage. Econ.*, 23(5), 459–471.
4. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 117–124.
5. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich [Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action](#)- Fluctuation and Noise Letters, 2023
6. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
7. Nazarbaevich A. A., To‘raevich J. I., Qilichbayevich S. M. Gulomov Ibrokhim Rustam ugli.(2024). Development Of China’s Sovereign Wealth Funds. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2 (1), 1–8.

